



HIKUYACHILIK JANRIDA DAVR VA SHAXS TALQINI (NAZAR ESHONQULL IJODI NAMUNASIDA)

Axmedova Sarvinoz Alimardon qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek filologiya fakulteti 2 -bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7972641>

ARTICLE INFO

Received: 17th May 2023

Accepted: 25th May 2023

Online: 26th May 2023

KEY WORDS

Hikoya motivi, davr va shaxs talqini, Nazar Eshonqul ijodi, psixologik tasvir, mustaqillik davri hikoyachiligi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hikoya janrida davr va shaxs munosabatlarini tadqiq markaziga olingan. O'zbek hikoyachiligi qadim va boy tarixga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Hikoyachilikning boshqa janrlardan farqi ham shunda. O'zbek hikoyachiligi davr va shaxs munosabatlarining o'zaro konseptual tartibga solingan yoki kishilik jamiyatimizda amalga oshirilayotgan voqea hodisalarga munosabat yang'lig' jaranglaydi. Shuningdek, o'zbek hikoyachiligi mustaqillik davri hikoyachiligi va mustaqillikdan oldingi davr hikoyachiligiga bo'linadi. Hikoya zamon voqealarning obrazlari vositasida yaratilishi va ushbu yo'ldagi bir necha voqealar avlodlar silsilasi mobaynida davom etishi bilan xarakterlanadi.

O'zbek adabiyoti hikoyatchiligi tarixiga yuzlansak, hikoyachilikda jahon urushlari tasviri, qayta qurish yillari tasviri, mustaqillik yillari tasviri va mustaqillikdan keyingi yillar tasvirlarini o'zida mujassamlashtirgan. Bunda zamonlarning qahramonlar obrazlar misolida ochib berilishiga ham guvoh bo'lish mumkin. Mustaqillik davrida o'zining hikoyalari bilan ajralib turuvchi Murod Muhammad Do'st, O'tkir Hoshimov, Xurshid Do'stmuhammad Nazar Eshonqul va Abdulla Qahhor ijodlarini keltirish mumkin. Nazar eshonqul hikoyalari tahlil qilish va uning qahramonlari vositasida zamon, davr va shaxs nuqtai nazaridan yondashuvini turli tarzda o'lchash, ularni yozuvchining hikoyalari namunasida amalga oshirish ham katta bir voqeliklarga sabab bo'ladi. Hikoyalari namunasida ijtimoiy holat va vaziyatlarda ro'y berib turgan munosabatlarning tartibga solinuvchi konseptual ahamiyatligini tekshirish, ularga taqriz berish katta bir voqelik hisoblanadi. Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasida kishining jamiyat va shaxs o'rtasida o'zaro munosabatlari, aloqalari va yakdil munosabatga kirishish to'g'risida qarashlar mavjud bo'lib kishi zakovatini ulug'lash va asrimizning ulug' ishlariga munosabat tarzda jaranglaydi. Maymun yetaklagan odam hikoyasida qahramon cholning umri davomida amalga oshirgan ishlari yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarama-qarshi munosabatlar negizida hayotining turmushlariga yakun yasaydi. Shuningdek, uning chizgan sur'atlari o'zining yorqin hayotidan dalil beruvchi rangli bo'yoqlar va chirkin hayotni ochib berishdagi sovuq ranglardan foydalanib chizgan hikoyalarni ham ko'rish mumkin.



Bundan tashqari Umarali Normatov, Xudoyberganov, Yo'ldoshev kabi olimlarimiz o'zbek nasrida amalga oshirilayotgan izlanishlar va ilmiy yangiliklarni chop etish yuzasidan turli ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Xurshid Do'stmuhammad va Nazar Eshonqul hikoyalarini tahlil qilish, ularda bildirilgan boqiylikka munosabatning, teran ko'z qarashlarning ochib berilishida avvalo dunyo tajribasidan foydalanish, ularni dunyo adabiyoti namunalari asosida yaratish kerak ekanligini ta'kidlashadi. Murod Muhammad Do'stning "Dashtu dalalarda" hikoyasi va Nazariy Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi o'zining yaratilish tarixi ifoda xususiyatlari va badiiy matnning ko'rkamligini ochib berishdagi shakli bilan ham ajralib turadi.

Shuningdek, "Maymun yetaklagan odam" hikoyasini tahlil qilish jarayonida yozuvchining qahramonlarni tasviriyl jihatdan psixologik hamda muayyan izchilliklar oqibatida amalga oshirilayotgan voqealar rivojining chol bilan birgalikda uyg'un tarzda amalga oshirilishini ham kuzatish mumkin. 50-yillardan qolgan eski bir kiyim va aft-angorining yomon holatda ekanligi tasviri bilan boshlanuvchi hikoya cholning mana shunday voqeliklarga ya'ni davr va shaxs o'rtasidagi munosabat va qahramonlarning kelishiga sabab bolishi bilan izohlanadi.

"Vatanparvarlik o'zbekbadabiyoti uchun yangilik yoki favqulotda mavzu emas, lekin shuni aytish kerakki biz nazarda tutayotgan bugungi davr o'zbekbhikoyachiligida ona vatanga sadoqat tuyg'usi aql-idrok bilan anglangan, tahlildan o'tkazilgan intellektual salohiyat darajasiga ko'tariladi. "Chin vatan" tushunchasi davr talablaridan kelib chiqqan holda qayta idrol etildi, bubi tushunishni har kim o'zicha kashf etmay turib kishini tom ma'nodagi insoniylik martabasiga ham, vatanparvarlik salohiyatiga yetisha olmasligi ham ayon bo'ldi. Sanab o'tilgan Nazar Eshonqul hikoyalarda psixologik tahlilning, o'z-o'zini taftish etishning - murosasiz ruhiy kolleziya kuchliligining bosh sabablaridan biri ham shunda edi".[1]

Hikoyachilikda vatan tasviri va kishilarning o'zaro mehnat tasviri bilan birgalikda vatanga muhabbat, mehnatning ulug'lash, davr va jamiyatdan rozilik hissini ufurib turishi, ham hikoyalarda o'ziga xos o'rinni egallashi bilan ajralib turadi. Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul hikoyalari ham shu tarzda jaranglaydi. Nazar Eshonqulning "Ozod qushlar", "Maymun yetaklagan odam", "Tobut", "Hayol" kabi ko'plab asarlari ya'ni hikoyalarda kishilik jamiyatimizda ozodlikka erishgan vatanning o'g'lonlari sifatida turkumi obrazlar yaratishga harakat qiladi. Bunda, obrazlarning mustaqillik va mustaqillikdan oldingi hayot tasviri o'ziga xos tarzda ochib berilishi bilan ahamiyatligini yoqotmay kelmoqda. G'arb adabiyoti namunalaridan hikoyalarning turli tarzda va hajmda bo'lishi bilan birgalikda ajralib turadi.

O'zbek adabiyotda hikoyalarda belgilangan tartib qonun-qoidalarga amal qiluvchi yoxud obrazlarning voqealar kesimida ishtirok etish ko'lamiga ko'ra ularning soni nisbatan kamroq, voqealar jamiyat va shaxs hayotida nisbatan kichik bir voqelikni egallab turgan holda tasvirga beriladi. O'tgan asrning 80-yillarida realizmning taraqqiyoti va ushbu sohadagi amaliy ishlar yuzasidan bildirilgan hikoyalarda ham jamiyatimizning turli bir holatlari ochib berilgan. Masalan: Murodmuhammaddo'st hikoyalarni keltirib o'tish mumkin. "Xaroba shahar surati" hikoyasi ham yozuvchining mahorati, iste'dodidan darak beradi. Parishon yigitning o'y-xayollari, fikrlari, ichki kechinmalari, o'zligini anglash yo'lidagi mashaqqatlari bayon etilgan mazkur hikoya insoniyat ongshuurining naqadar qotib qolganligi, uning yozuvchi Ch.Aytmatov "Asrga tatigulik kun" asari qahramoni Jo'lomon misoli manqurtga aylanib



ulgurmaganini "xaroba shahar surati" orqali badiiy timsollar bilan ochib bergan. E'tibor beradigan bo'lsak, yozuvchi asardagi shahar nomini "Tursoriya" deb ataydi va uning vayron bo'lishdan avvalgi go'zalligini odamlarga uqtirishga, uni qaytadan qurishga chaqiradi. "Beparvolik va loqaydlik bu - inson tanazzuli. Uning tuyg'ularsiz yashashi, kimligini va nima uchun bu dunyoga kelganligini anglamaslik, misoli hayvondek faqat qorin g'amini, o'z tinchini o'ylashi insoniylikdan yiroqlashish degani".[2]

Davlat va jamiyat hayotidagi munosabatdan tashqari kundalik hayoti mehnat tasviri fantastik didaktik yoki bo'lmasa romantik yo'nalishdagi hikoyalarni yaratishda ham kutmagan holatda ularga ham nisbat berib o'tadi. 70-yillarda hunarmachilikning betakror rivojlanishi va ushbu sohada faqatgina poemachilik bilan emas raman va dramaturgiya san'ati hikoyachilk janrlari muhabbat va nafrat hamda ishq-muhabbat o'rtasidagi voqeliklarni qalamga olish bilan farqlanadi. Hozirgi adabiy jarayon vakillari o'zlarining so'zlashuv qobiliyati, ko'z qarashlari, davr va shaxsga nisbatan munosabatlaridan kelib chiqqan holatda aholining turmush shakli va kundalik hayotini belgilab beruvchi voqealar qalamga olingan hikoyalar bo'lib, asarni birga tahlil qilish, ularni saralash lozim ekanligini yaxshi tushunishadi va anglashadi.

Xulosa o'rnida shuni keltirish joizki, o'zbek adabiyotida romanchilik, qissachilik va turli nasriy ijodiy yo'nalishlar bilan birgalikda hikoyachilik ham keng taraqqiy topdi. O'zbek hikoyalari o'zining yaratilish tarixiga ko'ra turli kechirgan voqea hodisalarga nisbatan mustaqillik davri mustaqillikdan oldingi va ikkinchi jahon urishi yillarida yaratilgan hikoyalarga bo'linadi. Qolaversa, qayta qurilish yillarida yaratilgan hikoyalar haqiqiy hikoyachilik namunalari hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek hikoyalarda voqealar rivojining ma'lum bir tartib qoidalar asosida amalga oshirilishi, yechimning ijtimoiy vaziyat bilan birgalikda munosabati belgilanadi. Shuni tahlil qilib o'tish lozimki, o'zbek adabiyoti hikoyachiligi kundalik turmush davri munosabatlarga turli xil ko'z qarashlari ham yechim topish mumkin ekanligini bildirib o'tiladi.

References:

1. Sapayeva Feruza Davlatovna. Hozirgi adabiy jarayon. Toshkent:. "Tafakkur avlodi" - 2020
2. Oripova Nurafshon Olimon qizi. Nazar Eshonqulning modern asarlari tahlili. "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya.